

Bolaligim – poshsholigim!

ERKATOY

MAKTAB

№5(9). 2014 y.
may



O'YINLAR

ERTAKLAR

KID'S ENGLISH

**DILSHOD RAJAB**

Dilshod Rajab o'zbek bolalar she'riyatining iste'dodli vakillaridan biri u 1964 yil Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida ziyoli oilasida tug'ilgan.

Jurnalistika sohasida 2011 yil "Oltin qalam" Milliy mukofoti uchun xalqaro tanlov sovrindori. Uning bolalarga atalgan "Qorqiz sovg'a keltirdi", "Hazilkashlar davrasida" kitoblari chop etilgan. Bundan tashqari: "Otamning bog'i", "Daryo ko'ngil" "Alifbo", "Tanish tovushlar", "Sukut sarhadi", "O'n o'rtoq", "Hamro polvon" kabi to'plamlari chop etilgan. Ayni paytda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi bolalar va o'smirlar adabiyoti kengashi a'zosi.

Bolaligim qishloqda o'tgan. Tabiat qo'ynida, daraxtlarga chiqib, o'tloqlarda yurishni yaxshi ko'rardim. Qushlarga juda havasim kelardi. Xohlagan joyiga uchib-qo'nib, parvoz qilishiga hayron va havas bilan qaraganman. Umuman, jonli tabiat, jonu dilim edi. Tezroq chang otib, kengliklarga, yam-yashil dalalarga chiqishni istardim. Tabiatga mehr dilimga she'r zavqini bergan bo'lsa kerak. Ko'p she'rlarim ona tabiat mavzusida. Tabiatdagi turfalik, ayniqsa bahordagi rang-baranglik, beg'uborlik go'zallik, ya'ni turli mavzular meni hali ham o'ziga tortadi, zavqlantiradi. Tabiat kuchida mehr tuyg'usi tarbiyalaydi deb o'ylayman.

PIYOLANING HAZILI

*Choynak do'stim, ne uchun
Burning doim osmonda?
Ha-a, bilaman, og'zingga
Quyib turar Qumg'onlar.*

*Lekin menga kerilma
Jilmasdan shu o'rnimdan,
Ichganingni barini
Tortvolaman burningdan.*

**POEZDNING BOLASI**

**Bahorgi ta'til payti
Shaharga kelgan Sayfi
Tramvayda yurganin
Maqtab der xolasiga:
Maza qilib mindim-da
Poezdning bolasiga.**





Turnalar-u, turnalar,
Qanotlari turlanar.
Yo'llari ekan uzoq,
Uchar solib arg'imchoq.

Chug'urlashib, chug'urlashib,
Bir-biriga ergashib,
Turnalar qarashadi
Biz tomonga engashib.

Turnalar-u, turnalar,
Osmon bo'ylab o'rmalar,
Issiq o'lkalar tomon
Yetsinlar eson-omon.

Turnalar

Po'lat MO'MIN she'ri,
D. OMONULLAYEVA musiqasi.

Moderato con moto

1. | 2.

Tur-na-lar u tur na-lar, qa-not-la-ri tur-la-nar, yo'l-la-ri e - kan u-zoq u-char so-lib

10 ar-g'im - choq Chu-g'ur-la-shib, chu-g'ur-la - shib, bir-bi-ri-ga er - ga-shib,

21 tur-na-lar qa - ra-sha-di biz to-mon-ga en-ga-shib. Tur-na-lar u tur na-lar,

31 1. | 2.

os-mon bo'y-lab o'r - na-lar, is-siq o'l-ka - lar to-mon yet-sin-lar e - son o-mon

40 yet-sin-lar e - son o-mon yet-sin-lar e - son o-mon

Yaxshisi ham, yomoni ham til

Kunlardan bir kuni podsho vazirga:

–Menga dunyodagi eng yaxshi go'shtdan kabob qilib keltiring, -debdi.

Vazir boshi qotib uyiga kelibdi, "eng yaxshi go'sht qaysi molning go'shti ekan?" – deb rosa o'ylabdi. U xunob bo'lib o'tirgan ekan, qizi:

–Otajon, nimadan xafasiz, yoki podshodan yomon gap eshitdingizmi? – deb so'rabdi.

–Qizim, podsho menga, eng yaxshi go'shtdan kabob buyurdilar, nimaning go'shti yaxshi va shirin ekanligini bilmay boshim qotib turibdi, - debdi vazir.

–Shunga ham ota go'ri qozixonami? Bitta qo'yni so'ydiring-da, tilini kabob qilib olib boring, gunohkor qilsa men kafil, - debdi qizi.

Vazir qizning gapi bilan bir qo'yni so'ydirib uning tilini kabob qildirib,

podshoning oldiga kiritgan ekan, podsho vazirga qarab:

–Endi eng yomon go'shtdan kabob qilib keltiring, -debdi.

Vazir yana qizning oldiga kelib:

–Qizim, yaxshisini qildik, qutuldik, yomoni qaysi go'sht? - debdi. Qizi:

–Yana bir qo'yni so'ydiring-da, tilini kabob qilib olib boring, - debdi.

Vazir yana shunday qilib podshoning oldiga kiritgan ekan, podsho aytibdi:

–Qilgan ishingiz joyida, bu sizning yaxshi bilimdon ekanligingizdan dalolat beradi, - desa, vazir:

–Taqsir, gunohimdan o'tsangiz to'g'risini aytay, - debdi va podshoga bu ishni kimning aqli bilan qilganini aytibdi.

Shunda podsho vazirning qizini chaqirib:

–Qizim, nima uchun tilni ham yomon, ham yaxshi go'shtlarga sanadingiz? – debdi. Shunda qiz:

–Podshohim, kishining boshiga yaxshilik ham, yomonlik ham tildan keladi. Elda bir maqol bor: "Tish tilning qal'asi, til boshning balosi". Bu gapni eshtib podsho vazirning qiziga ajoyib bir bog' in'om etibdi.



JAHON CHEMPIONI BO'LISH ORZVIM

Bugun sportning TAEKWON-DO turi bilan shug'ullanib, to'rtta oltin va ikkita bronza medallari sohibi bo'lgan tengdoshingiz Ibroxim Zoxidov bilan yaqindan tanishamiz.

Men 2001-yil 31-mayda Toshkent shahrida tug'ilganman. Shahardagi 42-maktabning 6-sinfida o'qiyman. Sportga besh yoshimdan qiziqqa boshlaganman. Bu qiziqishimni ko'rgan oyijonim meni ustozim


Baxtiyor Isroilovga shogidlikka bergan. Ustozimning sa'i-harakatlari tufayli qisqa vaqt oralig'ida bir qancha yutuqlarga erishdim.

2009-yil "JAR" ochiq chempionati musobaqasida qatnashib, birinchi o'rinni, 2011-yili III-o'rinni, 2012-yili esa II-o'rinni egalladim. 2012-yili Sochida Qora dengiz kubogi bo'lib o'tdi. Unda bitta oltin va ikkita bronza medali bilan taqdirlandim. 2013-yil yurtimizda vatan himoyachilari kuniga bag'ishlangan musobaqada birinchi o'rinni egalladim. 2013-yil Ispaniyaning Barsilona shahrida bo'lgan bahsda I-o'rin bilan taqdirlandim. 2013-yil Amerikaning Nyu-York shahrida xalqaro turnir bo'lib o'tdi. Unda massage yo'nalishida birinchi, til yo'nalishida ham birinchilikni qo'lga kiritdim.

Men, sportdan tashqari kitob o'qishga qiziqaman. Menga asosan badiiy asarlarni, o'zbek xalq dostonlarini o'qish yoqadi. Bundan tashqari she'r yod olish eng sevimli mashg'ulotim desam ham bo'ladi.



Durdona AZIZOVA tayyorladi.



Do you know?

Translate this text "Television"

A Scotsman, Jhon Logie Baird, transmitted the first television picture on 25 October, 1825. The first thing on television was a cat from the office next to Baird's workroom in London. In 1927 Baird sent pictures from London to Glasgow. In 1928 he sent pictures to Paris and also produced the first colour TV pictures.




Poem

Small dog, big dog, very-very big!
 [smɔ:l dɔg, big dɔg, 'veri-'veri big]
 Short ruler, long ruler, very-very long!
 [ʃɔ:t 'ru:lə, lɔŋ 'ru:lə, 'veri-'veri lɔŋ]

Short boy, tall boy, very-very tall!
 [ʃɔ:t bɔi, tɔ:l bɔi, 'veri-'veri tɔ:l]
 Small house, big house, very-very big!
 [smɔ:l haus, big haus, 'veri-'veri big]

One, two,
 Tie your shoe
 Three, four,
 Look at the door
 Five, six,
 Pick up sticks
 Seven, eight,
 You are late
 Nine, ten
 Late again!

[pik ʌp stiks]
 [faiv, 'siks]
 [ju: a: 'leit]
 [nain, ten]
 [tai jɔ: 'fu:]
 [θri:, fɔ:]
 ['leit ə'gein]
 [wʌn, tu:]
 [luk æt ðə 'dɔ:]
 ['seven, 'eit]



Assalomu alaykum "Erkatoy" jurnali ijodkorlari. Men Zulfizarxon Teshayeva Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi 20-maktabning 5-sinf o'quvchisiman. Menga "Erkatoy" jurnalining boshqotirmalari, topishmoq va ertaklari, hamda matematik savollarning javoblarini topish judayam yoqadi. Men ham tengdoshlarimga havas qilib ingliz tilidagi boshqotirmaning jo'natyapman.

Diqqat bilan ikkala uchburchakga qarang.
Uchinchisini o'zingiz qanday chizilishi
kerakligini o'ylab ko'ring.



Beshta 2 soni bilan 28 sonini
keltirib chiqara olasizmi?
Shunday bo'lishi mumkinmi?



Ko'rib turganingizday raqamlar
bir-birini tagidan yozilgan:


111

777

999

6ta raqamni o'chiring
va qolgan raqamlardan
20 sonini hosil qiling.

RASMDA NECHTA FIL BOR? ULARNI TOPIB BO'YANG.



Dehqon dalasida

Ketmon

Tinmay ishlar, yer chopar dehqon,
To kechgacha, saharlab turib.
“Dam oling” deb yolvorar ketmon,
Oyog‘iga har dam bosh urib.



O‘ROQ

Dehqon qo‘lidagi shu o‘roq
So‘roq bo‘lib ko‘rinar menga:
Kimning arpasini xom o‘rdim,
... nega? ... nega? ... nega?



Panshaxa

O‘roq o‘rar bukchayib,
Qaytgunicha to dami.
Xaskash ishlar yer tirnab -
To‘plab qo‘yar pichanni.



Belkurak

Dehqon bobo, doim tik-ku belkuraging,
Lekin nechuk hol-ahvoling, bel, kuraging?
Keng maydonga tushgan chayir polvon o‘zing,
Tolmagaysan, sira ko‘rmas yer kuraging.



VARRAKLAR QUVONCHI

O‘tib ketdi badqovoq
Qishning achchiq ayozi,
Tabiat kiymoqda shod
Bayramona libosin.

Guldirab kular osmon
Chaq nab chaqmoq toshlari,
Kulgisining zo‘ridan
Chiqib ketar yoshlari.

Ichga sig‘may sevinchi
Qay nab toshar buloqlar,
O‘zaniga sig‘masdan
Toshar soyu irmoqlar.

Yumshoq yerdan yumalab
Chiqar xandon boychechak,
Qattiq yerdan qatalab
Chiqar polvon boychechak.

...Bizning ham ko‘ksimizga
Shamol tegadi endi.
Quvonchlardan boshimiz
Ko‘kka yetadi endi.



Qushlar

Qushlar yayrab ucharlar,
Qushlar quvnab ucharlar,
Ular qanotin yozib.
Tog'dan oshib kelarlar.

Dadajonim

Dadam ishdan qaytsalar,
Nurga to'lar uyimiz.
Shu zahoti osmonga,
Ko'tarilar bo'yimiz.

Dadam meni erkala,
Ona qizim deydilar.
Oppoq qandim novvotim,
Mehribonim deydilar.

Hilola va Marhabo

Hilola va Marhabo
Mashq qilib, yuradi.
Bu vaqtda-chi Marhabo
Hovlini supuradi.

Barcha do'stlari bilan,
Ular juda ahillar.
Bir-biriga mehribon,
Ikki opa-singillar.

Yelimqog'ozdan
Alisaning
rasmini olib,
yopishtiring va unga
qarab rasmni bo'yang.

Singlim

Meni singlim erkatoy,
Meni singlim shirintoy.
So'zlari juda qiziq,
Ko'zlari juda suziq.

Uni ko'ring bir bor siz,
Yaxshi ko'rib qolasiz.
Meni singlim erkatoy,
Meni singlim shirintoy.

Shaxnoza TO'RAQULOVA
244-maktab 4-^{“A”} sinf o'quvchisi.
Xamza tumani.



O'ylab ko'r

Soat raqamlarini ikkita to'g'ri chiziq bilan uch qismga ajrating. Har bir ajratilgan qismni bir-biriga qo'shganda uch alasini soni bir xil chiqsin.



Oltitata stulni shunday joylashtiring-ki, devorning to'rtala tomonida ikkita dan stullar tursin.



NECHTA YO'LOVCHI BOR?

Avtobusda 3 kishi ruscha gaplashdi, 3 kishi inglizcha gapirdi. Lekin avtobusda faqat 3 kishi bor. Qani ushbu boshqotirmaning javobini toping-chi?



Diqqat bilan rasmdagi tipratikanlarni harakatlanishiga qarang, faqat bittasi qo'ziqorini olib ketolmaydi.



Ikki uchburchakdagi gugurt cho'plarini uch donasini shunday joylashtiring-ki, natijada 6 ta uchburchak hosil qiling.



Bolajonlar tabiat hodisalari bilan bog'liq topishmoqlarni toping.

Oq sandiq ochildi,
Olamga nur sochildi.

(qsoʻlnb'uoosso)



Oqib kelar shaldirab,
Oynadayin yaltirab.

(ABS)

Ayozli kunda turmaydi,
Oyog'i yerga tegmaydi.

(inlnq)



Yorug'i bor, dovrug'i bor,
O'zi yo'q, ovozi bor.

(soqppbhuosou)


Uzun-uzun o'z keldi,
Uzun bo'yli qiz keldi.
Qoshi qaltirab keldi,
Ko'zi yaltirab keldi.

(n, 3uoos)



MAQOL KROSSYORD

1. ..., mehnatning tagi rohat
2. Bilimli inson ... bo'lmas
3. ... bilim o'chog'i
4. Birlashgan ..., birlashmagan to'zar
5. ... bilguncha, ish bil
6. Hurmat qilsang, ... ko'rasan
7. ... til – zahri ilon, chuchuk tilga – jon qurbon





*Возле ёлки ёж с енотом
Из норы достали ноты.
Дирижирует енот.
Ёжик песенки поёт.*




Жили - были старик, старушка и внучка Машенька. Раз пошла Маша в лес и заблудилась ... Ты можешь продолжить сказку?

Анаграмма

Географию со мной | Дай порядок букв иной -
Изучают в школе дети. | И найдешь меня в буфете.

(Антон - ентон)

Свяжи шарики так, чтобы из слогов, написанных на них, получилась слова. Два шарика уже связаны. Прочитай слово, которое получилась.





TO'RAQULOVA Shaxnoza,
244-maktab 4-^{va} sinf
o'quvchisi. Toshkent sh.



Gulyora G'AYRATJONOVA,
19-maktab 3-^{va} sinf
o'quvchisi. Toshkent sh.

KULDIRUYCHI - "SEHRGAR"

Do'stingizni kuldirishga nima deysiz? Bu qo'lingizdan kelarmikin? Balki, sizdan yaxshi sehrgar chiqar?

O'yinga sardor tanlanadi. Qolganlar xona bo'ylab tarqaladilar. "To'xta" buyrug'i eshitilgach, hamma turgan joyida qotib qolishi kerak. So'ng sehrgar qimirlamay turganlardan birini borib 50-60 sm uzoqlikda turib kuldirishi kerak bo'ladi. Kuldirish usuli kulgili qiliq yoki gapdan iborat bo'lishi kerak. Agarda qimirlamay turgan "sehrlangan" kulib yuborsa u ham sehrgarga yordam bera boshlaydi. Shu tariqa, hamma qimirlamay turganlarni kuldirib o'z saflariga q o ' s h i b olmaganlaricha, davom etadi. O'yinda oxirgi kulib yubormagan o'yinchi g'olib bo'ladi.




Asilbek HAYDAROV,
"Qo'ng'iroqcha" nomli 306-
bog'cha tarbiyalanuvchisi.
Hamza t..




Javohir ERGASHYEV,
26-maktab o'quvchisi.



QOLUPRAY



Ushbu rasmning rangli qismlarini yelim-qog'ozdan kesib, o'z joyiga joylashtiring.



Sahifalar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Yoshlar bo'limi bilan hamkorlikda tayyorlandi.

Ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy nashr

Jurnal oyda bir marta chiqadi

MUASSIS:
"Matbuot info media servis" MChJ

Muharrir: Durdona AZIZOVA

Loyiha muallifi:
Nodir YUSUPOV

TAHRIR HAY'ATI:
Iqbol MIRZO (*hay'at raisi*)
Shermat YORMATOV
Bahodir SHAROFOV
Vohid LUQMON
Orif TO'XTASH
Nodir JONUZOQ

Mas'ul kotib:
Gavhar ABDURAHMONOVA

Jurnal 03.12.2013 y. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligidan 0832 raqamli guvohnoma olgan.

Tahririyat manzili:
100011. Toshkent shahri,
A.Navoiy ko'chasi, 16-^h uy,
415-xona. Tel: 8(595) 196-58-34;

"Sano Standart" MChJ
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh. Olimazor tumani
Shiroq ko'chasi 100-uy.

Buyurtma raqami -
Bichimi - 70/100 1/16
Nusxasi -

Jurnal "Erkatoy" tahririyati kompyuterlarida sahilalandi. Sahifalovchi:
Anvarjon MIRZAALIYEV

Jurnal qahramonlari suratlaridan foydalanish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirildi.

2014 yil 6 Sog'alom bola yili

**DIQQAT, YANGI
TANLOV!**

ALPOMISHLAR YURTI BU DIYOR

*Alpomishlar yurti bu diyoy,
Doston bo'lgan Rustamlari bor.
Shu o'lkada oftob ayvoni,
Shu o'lkadan boshlanar bahor.*

*Go'zal yurtning ko'rkiga chiroy,
Uzun kokil malak Barchinoy.
Hur qizlari ko'cha to'ldirsa,
Go'yo yerda suzib yurar oy.*

*Men ham shu el farzandidirman,
Ko'z qorasi, dilbandidirman.
Erkanib bag'rida o'sdim,
Men ham uni jondan sevarman.*

*Alpomishlar yurti bu diyoy,
Doston bo'lgan Rustamlari bor.
Shu o'lkada oftob ayvoni,
Shu o'lkadan boshlanar bahor.*

M. Yusuf

O'QITUVCHILAR UCHUN
**“ALPOMISH
va
BARCHINOY”**



**Sovg'alar
sizniki**

Tanlov sharti: Muhtaram(a) ustozlar, siz tarbiyalagan va tarbiyalayotgan farzandlarimiz mustaqil ona yurtimizning haqiqiy yosh avlodi, bugungi kunning Alpomishlari hamda Barchinoylaridir.

O'zingiz ta'lim berayotgan o'quvchilar haqida bizga yozib yuboring. Bugungi kun bolalariga eng yaxshi ta'rif bergan ishtirokchi tanlov g'olibi hisoblanadi.

ISSN 2181-7456



**Magnit
barchasi**

Tanlov yalami jumladan 129 sonida e'lon qilinadi.